

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>F.A.Yuldashev</b>   |     |
| Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari .....                            | 218 |
| <b>I.A.Asatulloev</b>  |     |
| Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili .....  | 223 |
| <b>D.Sh.Sagdullayeva</b>   |     |
| Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari .....   | 228 |
| <b>S.S.Sodiqov</b>   |     |
| Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari .....  | 234 |
| <b>I.A.Hamdammov</b>   |     |
| Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi .....   | 240 |
| <b>H.X.HAKIMOV</b>   |     |
| Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса .....                  | 245 |
| <b>Q.H.Boymirzayev</b>   |     |
| Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni ..... | 252 |
| <b>B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva</b>   |     |
| Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari .....                                       | 256 |
| <b>E.T.Qalqanov</b>  |     |
| Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari .....   | 261 |
| <b>Sh.X.Tog'ayev</b>   |     |
| Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari .....                         | 266 |
| <b>I.A.Ikramov</b>   |     |
| Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi .....   | 272 |
| <b>V.B.Zayniddinova</b>  |     |
| Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi .....  | 277 |
| <b>J.M.Miraxmedov</b>  |     |
| Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili .....  | 281 |
| <b>B.X.Mirzaraximov</b>  |     |
| O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari .....               | 285 |
| <b>D.E.Normatova</b>   |     |
| Ekzistensializm – hayot falsafasi .....  | 293 |

## SIYOSAT

|  |     |
|--|-----|
| <b>I.A.Raximov</b>   |     |
| “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari” .....           | 297 |
| <b>M.H.Rustamaliyev</b>  |     |
| Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi .....               | 302 |
| <b>N.B.Dexkanov</b>  |     |
| Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni .....  | 306 |
| <b>M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev</b>  |     |
| Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi .....                                 | 312 |
| <b>J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva</b>  |     |
| Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish .....                         | 323 |
| <b>J.K.Yusubov, D.A.Xusanova</b>   |     |
| Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili ..... | 327 |

## TARIX

|   |     |
|---|-----|
| <b>A.Sharafiddinov</b>  |     |
| Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari) ..... | 331 |



UO'K: 323:378(575.1)

**AHLOQAN YETUK VA FIDOIY DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI  
TARBIYALASH – MAMLAKAT RIVOJINING MUHIM OMILI****НРАВСТВЕННО ЗРЕЛЫЕ И САМООТВЕРЖЕННЫЕ ГОСУДАРСТВЕННЫЕ  
СЛУЖАЩИЕ ОБРАЗОВАНИЕ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАНЫ****TRAINING MORALLY MATURE AND SELFLESS OFFICIALS IS AN IMPORTANT  
FACTOR IN THE COUNTRY'S DEVELOPMENT****Yusubov Jamshid Qadamovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD**Xusanova Dilnoza Alimqul qizi<sup>2</sup>**<sup>2</sup>O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi**Annotatsiya**

Maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari, huquqlari, majburiyatlari, uning o'ziga xos xususiyatlari va ular faoliyatini muvofiqlashtiruvchi huquqiy asoslarni shakllanishi, milliy ma'naviy qadriyatlarimizga xos bo'lgan milliy boshqaruv an'analari asosida shakllangan qoidalarni amaliyotda qo'llashning ahamiyatiga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Annotatsiya**

В статье изложены суждения о правилах нравственного поведения, прав, обязанностей государственных служащих, их особенностях и формировании правовых основ, координирующих их деятельность, важном значении применения на практике правил, сформированных на основе национальных традиций управления, характерных для наших национальных нравственных ценностей.

**Abstract**

The article highlights opinions on the rules of conduct, rights, duties, peculiarities of public officials and on the formation of the legal framework coordinating their activities, on the importance of applying in practice the rules formulated on the basis of national management traditions inherent in our spiritual values.

**Kalit so'zlar:** davlat fuqarolik xizmati, rahbar kadr, huquq, davlat boshqaruvi, majburiyat, kasbiy kompetensiya, odob-ahloq qoidalari.

**Ключевые слова:** государственная гражданская служба, руководящий кадр, право, государственное управление, обязанность, профессиональная компетенция, правила нравственного поведения

**Key words:** civil service, executive staff, law, public administration, duty, professional competence, rules of etiquette.

**KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatida faoliyat olib borayotgan xodimlar vatanimizning ulug'vor strategik maqsadlari yo'lga nechog'li natijadorlik asosida safarbar etilishi millatimiz taraqqiyoti, buguni va kelajagi takdirida favqulodda muhim ahamiyatga ega ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari deganda davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan rioya etilishi shart bo'lgan odob-axloq normalari majmui[1.] tushuniladi.

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatida kadrlari siyosati O'zbekiston Respublikasining huquqiy-demokratik davlat sifatida taraqqiy etishida hal etuvchi omil vazifasini bajaradigan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim tarkibiy qismlaridan biri kadrlar bilan bog'liq jarayonlarni ijtimoiy-huquqiy nuqtai nazardan to'g'ri boshqarishni tashkil etishdir. Kadrlar siyosati uning maqsadlari va tashkiliy masalalari, munosabatlari taqsimlanishi rasman davlat hokimiyati va uning organlariga huquqiy-me'yoriy talablar asosida birlashtirilgandagina davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Har qanday davlatda davlat xizmatini tashkil etishning asosiy maqsadi, albatta, davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish, jamiyat xotirjamligini ta'minlash, Konstitutsiyasi va qonunchilik hujjatlari bilan o'rnatilgan tartibda ommaviy manfaatlarni qondirish hisoblanadi[2. 16-bet].

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 8 avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni (2017), "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-son Farmoni (2017), "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3430-son Qarori (2017), "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni (2019), "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-son Qarori (2019), «Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-269-son Farmoni (2019), «O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5843-son Farmoni (2019), "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni (2023)shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Mamlakatimizda 2022-yil 8-avgustda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonunining qabul qilinganligi katta ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, unda mamlakatimiz taraqqiyotini jadallashtirish uchun o'ziga xos "drayver" – harakatlantiruvchi kuch mujassamlashgan. Uning 4-bob 17-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari quyidagicha belgilab berilgan:

- rahbarlar, bo'ysunuvdagilar va boshqa davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro axloqiy munosabatlar;
- davlat fuqarolik xizmatchisining ishchanlik obro'siga va davlat fuqarolik xizmatining nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlar (harakatsizlik);
- davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvorining asosiy qoidalari.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini buzish ularni qonunga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat davlat organlarining kadrlar bo'linmalari yoki odob-axloq komissiyalari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari qonunchilikda belgilanadi. Har bir davlat organi Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari asosida faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zining ichki odob-axloq qoidalarini tasdiqlaydi[1.].

Shu munosabat bilan davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonunning qabul qilinganligi mamlakatimizda davlatning xalqqa xizmat kilishi, odamlarning roziligini olish borasida Prezidentimiz ilgari surayotgan xalqparvar siyosatning yana bir amaliy tasdig'i buldi.

Uzoq yillardan beri kutilgan O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunining 7-bob 42-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetentsiyasi va uni uzluksiz ravishda oshirib borish belgilab berilgan. Unga muvofiq davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetentsiyasini uzluksiz ravishda oshirishdan maqsad uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratligi, bu davlat organi tomonidan muntazam ravishda baholab borilishi, mazkur jarayonda qayta tayyorlash qo'shimcha, malaka oshirish muntazam ravishda va mustaqil ta'lim esa ishdan bo'sh vaqtida oshirilishi belgilab qo'yilgan[1.].

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq davlat fuqarolik xizmatchisining huquqlari huquqlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati va murakkabligiga, bajarilgan ishlarning miqdori hamda sifatiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish;

- kasbiy kompetentsiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilish;
- davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish;
- mehnat to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hamda shartlarda mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish;
- o'z mansab vakolatlarini, xizmat majburiyatlarini va javobgarligini belgilovchi lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish;
- mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq bo'lgan ish o'rniga ega bo'lish;
- ish vaqti davomiyligining chegarasini, ayrim davlat fuqarolik xizmatchilari uchun qisqartirilgan ish vaqtini belgilash, har haftalik dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari, shuningdek yillik mehnat ta'tillari berish orqali ta'minlanadigan tarzda dam olish;
- qonunchilikka muvofiq huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, shuningdek davlat pensiya ta'minotini olish;
- davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;
- davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish;
- davlat fuqarolik xizmatidagi korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar bergan taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish;
- xizmatga oid masalalar yuzasidan davlat organining rahbariyatiga o'z fikrini bildirish, o'zi davlat fuqarolik xizmatini o'tayotgan davlat organining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
- o'zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat organining rahbariyati hamda boshqa mansabdor shaxslar tomonidan hurmat qilinishi;
- davlat organi tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat fuqarolik xizmati lavozimining va ish haqining saqlanib qolishi;
- qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'ri qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;
- o'zining mehnat huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish;
- davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish;
- o'zining shaxsiy hujjatlari to'plami bilan tanishish.
- Davlat fuqarolik xizmatchisi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin[1.].

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati kadrlarini tayyorlash, ularni fidoyi, vatanparvar, malakali va ijtimoiy faol qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati kadrlari tizimining shakllanish va rivojlanish jarayonining yangi bosqichi boshlandi. Davlat organlari va tashkilotlarida kadrlar ma'muriyatchiligining zamonaviy usullarini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmati agentligi tashkil etilib, uning faoliyati yo'lga qo'yildi[3.]. Ayniqsa, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatining samarali tizimini shakllantirish, amalga oshiriladigan vazifalarni aniq belgilash, davlat fuqarolik xizmati kadrlari faoliyatini yanada takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilayotgani[5.] ushbu masalaning muhim ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, bu borada gap ketganda Qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari, majburiyatlari va kasbiy kompetentsiyasining shakllanishi

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;
- o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalarga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etishi;

## SIYOSAT

- ushbu Qonunda belgilangan, davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq bo'lgan cheklovlarga rioya etishi;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, beg'araz va xolis bo'lishi;
- davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo'lishdan tiyilishi;
- o'z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o'z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymasligi;
- davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni muhofaza qilish to'g'risidagi talablarga rioya etishi, shuningdek o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi chog'ida olingan mazkur ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, shu jumladan davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugaganidan keyin oshkor etmasligi;
- qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari va mol-mulki to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishi;
- davlat mulkining but saqlanishini ta'minlashi, o'ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi;
- o'zining kasbiy kompetentsiyasini muntazam ravishda oshirib borishi shart[1.].

Davlat fuqarolik xizmatchilarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, bugungi kunda davlatni barqarorlashtirish bilan birga jamiyatni faollashtirish, davlat fuqarolik xizmatchisining jamiyatga mehri munosabatini shakllantirish, xalqqa xizmat qilish, odamlarni roziligini olish, halollik, adolatni keng ko'lamlarda o'rnatish borasidagi zamonaviy yondashuvga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj kuchaydi. Xususan raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak birgina 2022 yilni o'zida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan jami 68788 nafar davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasini oshirish bo'yicha 90 dan ziyod o'quv kurslari tashkil etilib, ilm.argos.uz – elektron platformasi tashkil etilib, platformaga turli sohalarga oid video ma'ruzalar, elektron kitoblar joylashtirildi[4.]. Bu o'z navbatida davlat fuqarolik xizmatchilarini odob-axloqini to'g'ri shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat fuqarolik xizmatchisining axloqiy sifatlari uning faoliyat printsiplari ta'sirida rivoj topadi. SHu bois tegishli yuqoridagi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda davlat fuqarolik xizmatchisining ahloqiy va faoliyat printsiplari mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur printsiplar har bir davlat fuqarolik xizmatchisining hayotiy qiodasiga aylanmog'i lozim. Zero, har birimiz shu yurt rivoji, kelaji va ravnaq topishi uchun ma'ulmiz.

Umuman, so'nggi davrda davlat fuqarolik xizmati kadrlari va rahbar kadrlarga qo'yilgan talablar, ular faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi huquqiy asoslar, milliy ma'naviy qadriyatlarimizga xos bo'lgan milliy boshqaruv an'analari asosida shakllangan qoidalarni amaliyotga qo'llash natijasida quyidagi talablar majmui shakllandi desak mubolag'a bo'lmaydi:

- faoliyat uchun shaxsiy javobgarlik, qat'iy tartib-intizom;
- tashkilotchilik qobiliyatiga ega ekanligi va faol tadbirkorlik;
- rahbarlikka nomzodning o'z kasbiga doir tegishli bilim, tajriba va yuqori malakaga ega bo'lishi;
- sobiq totalitar tuzumga xos asoratlar - ijtimoiy boqimandalik, befarqlik, yuqoridan topshiriqlar kutish, tashabbussizlik illatlaridan holi ekanligi;
- xalq manfaatlari va xalq farovonligi yo'lida faoliyat yuritishga moyilligi, qarorlar qabul qilishda xalq fikri va talablarini e'tiborga olishi;
- ish faoliyatida o'z atrofiga sog'lom kuchlarni birlashtira olish qobiliyatiga egaligi, qaror qabul qilishda jamoaga tayanishi, ijro faoliyatiga mas'ullik bilan yondashish;
- zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi fikrlar xilma-xilligiga chidamli bo'lishi, ish faoliyatida hurfikrlilikka shart-sharoitlar yaratish;
- milliy va xalq manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun holda ko'rishi;
- o'z yurtiga fidoyi bo'lishi, vatanparvarligi, rahbarlik faoliyatini Vatanga xizmat, deb bilishi va boshqalar.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 8 avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/6145972#6146403>
2. Э.Т.Хожиев, Г.С.Исмаилова, М.А.Рахимова. Давлат хизмати. Ўқув қўлланма. -Т.: Baktria press, 2015, 16-бет.
3. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5843-son Farmoni, 2019 yil 3 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-son Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Qarang: [www.argos.uz](http://www.argos.uz)
5. Qarang: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)